

**Raxat NURJANOV**

*Toshkent Xalqaro Universiteti*

## **SUV XO‘JALIGI SOHASINI DAVLAT BYUDJETIDAN MAQSADLI INDIKATORLAR ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada suv xo‘jaligi sohasini davlat byudjeti hisobidan maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. An‘anaviy resurslarga asoslangan yondashuvdan byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimiga o‘tishga alohida e‘tibor qaratilgan. Suv xo‘jaligi sohasida davlat xarajatlarining aniq maqsadli tadbirlarga yo‘naltirilishi va ularning hisobdorligi hamda barqarorligini ta‘minlashda maqsadli indikatorlarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, indikatorlarga asoslangan yondashuvning suv siyosatidagi strategik maqsadlarga erishishdagi ustuvorliklari, jumladan suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv resurslarini aniq hisobini yuritish va iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar.** davlat byudjeti, maqsadli indikator, iqlim o‘zgarishi, moslashish rejasi, suv resurslari, raqamlashtirish, suv tejovchi texnologiya, yashil iqtisodiyot.

## **FINANCING THE WATER MANAGEMENT SECTOR FROM THE STATE BUDGET BASED ON TARGET INDICATORS**

**Abstract.** This article examines the issues of financing the water management sector from the state budget based on target indicators. Particular attention is given to the transition from a traditional resource-based approach to a results-oriented budgeting system aimed at improving the efficiency of budgetary expenditures. The role of target indicators in ensuring the purposeful allocation, accountability, and sustainability of public spending in the water management sector is analyzed. In addition, the article highlights the priorities of an indicator-based approach in achieving strategic water policy objectives, including the rational use of water resources, accurate water accounting, and adaptation to climate change.

**Keywords.** state budget, target indicator, climate change, adaptation plan, water resources, digitalization, water-saving technologies, green economy.

### **Kirish**

Suv resurslari iqtisodiyotda muhim strategik omillaridan biri bo‘lib, boshqaruv jihatdan oziq-ovqat xavfsizligi, sanoatda to‘g‘ri foydalanish madaniyati, ekologik barqarorlik hamda aholining turmush darajasini yaxshilanishida ahamiyat kasb etadi. Iqlim o‘zgarishi jarayonlari tezlashishi, suv resurslarining hududlar va mavsumlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi, shuningdek aholi sonining ko‘payishi

suvga bo'lgan ehtiyoj ortishi tufayli suv xo'jaligi sohasida boshqaruv va moliyalashtirish mexanizmlarini zamonaviy yondashuvlar asosida olib borishni talab qiladi.

Suv xo'jaligi sohasi iqtisodiy rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, suv resurslari cheklangan davlatlarda suv infratuzilmasini samarali boshqarish va modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining katta qismi sug'oriladigan yerlar hisobiga amalga oshirilgani sababli suv xo'jaligi tizimini rivojlantirish davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu bois suv xo'jaligi sohasini davlat byudjetidan moliyalashtirishda an'anaviy xarajatlar asosidagi yondashuvdan ko'ra, natijaga yo'naltirilgan va aniq ko'rsatkichlarga asoslangan mexanizmlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat byudjetidan maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish tizimi ajratilayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda belgilangan natijalarga erishishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv yo'qotishlarini kamaytirish kabi ustuvor vazifalarning bajarilishini aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Natijada byudjet mablag'larining shaffofligi va hisobdorligi oshadi, suv xo'jaligi tashkilotlarining faoliyati esa natijadorlik ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Shu jihatdan, suv xo'jaligi sohasini davlat byudjetidan maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish tizimini takomillashtirish mamlakatda suv resurslarini samarali boshqarish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

O'zbekiston Respublikasida suv xo'jaligi sohasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, mazkur sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar suv resurslaridan oqilona foydalanish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv tejovchi va raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Shu bilan birga, suv xo'jaligi sohasiga yo'naltirilayotgan davlat byudjeti mablag'larining samaradorligini oshirish, ularning aniq natijalarga yo'naltirilganligini ta'minlash masalasi muhim masalalardan biridir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab moliyalashtirish amaliyoti ko'p hollarda xarajatlarning hajmi va ehtiyoj asosiy mezon sifatida qaralib, erishilgan natijalar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik samarasi yetarli darajada baholanmagan. Ushbu yondashuv byudjet mablag'laridan foydalanish jarayonida

samaradorlik hamda aniq maqsadga erishish ko'rsatkichlarini namoyon etishga imkon bermagan. Shu sababli, so'nggi yillardagi davlat moliyasini boshqarishda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish konsepsiyasi, jumladan maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Suv xo'jaligi sohasida maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish davlat byudjeti xarajatlarini aniq maqsadlar uchun yo'nalishtirish, natijadorligini oshirish, suv resurslarini tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qiladigan tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu mexanizm orqali suv xo'jaligida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash hamda moliyalashtirish qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkoniyati kengayadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Suv xo'jaligini maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish yo'nalishlari tadqiq etilgan ushbu ilmiy maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalaniladi.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan iqtisodiyot tarmoqlarini, xususan, suv xo'jaligi sohasini moliyalashtirishda asosan sohalarda shakllanadigan ehtiyojga, xarajatlar turi hamda o'tgan moliya yili uchun haqiqiy xarajatlar hajmidan kelib chiqib, ya'ni resurs (input) asosidagi yondashuvga tayangan holda shakllantirilgan. Bunda moliyalashtirish hajmi:

suv xo'jaligi ob'yektlarini qurish, rekonstruktsiya va modernizatsiya hamda qayta tiklash tadbirlari bo'yicha investitsiya dasturlarini shakllantirgan holda moliyalashtirish;

suv xo'jaligi tashkilotlari balansida mavjud bo'lgan barcha turdagi suv xo'jaligi inshootlarini saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, erishilgan natijalar va samaradorlik ko'rsatkichlari ikkilamchi ahamiyat kasb etgan.

Suv xo'jaligi sohasida davlat byudjeti mablag'lari asosan kapital qo'yilmalar, rekonstruktsiya hamda joriy xarajatlar kesimida va smeta asosida taqsimlangan. Moliyalashtirishning asosiy mezonlari sifatida irrigatsiya va melioratsiya inshootlarining mavjudligi, xizmat ko'rsatish hududi va texnik xarajatlar hajmi qaralgan. Suv tejash, samaradorlik yoki xizmat sifati bilan bog'liq aniq ko'rsatkichlar tizimli ravishda qo'llanilmagan.

Mazkur yondashuv qisqa muddatli texnik ehtiyojlarni qondirish imkonini bergan bo'lsa-da, suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashish va byudjet mablag'larining natijadorligini baholash imkonini bermagan.

Shu bois, samaradorlik va natijaga erishishga asoslangan elementlarini joriy etish bosqichi 2010 yildan boshlab davlat moliyasini boshqarishda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlangan. Ushbu davrda suv xo'jaligi sohasida dasturiy rejalashtirish, maqsadli loyihalarni moliyalashtirish hamda ayrim samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobga olish amaliyoti shakllandi. Jumladan, irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish, meliorativ holatni yaxshilash va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha alohida davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Biroq ushbu bosqichda qo'llanilgan ko'rsatkichlar asosan texnik va jismoniy hajmlarni aks ettirgan bo'lib, ularni to'liq ma'noda maqsadli indikatorlar tizimi sifatida baholash qiyinshilik tug'dirgan. Natijalar bilan moliyalashtirish o'rtasidagi bog'liqlik yetarli bo'lmagan.

Institutsional islohotlar va konseptual burilish 2018-yildan boshlab suv xo'jaligi tizimida tub institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-fevraldagi PF-5330-son Farmoniga muvofiq suv xo'jaligi mustaqil boshqaruv sohasi sifatida ajratilib, bu sohada strategik rejalashtirish va natijaga yo'naltirilgan boshqaruvga o'tish uchun huquqiy va tashkiliy asoslar yaratildi.

Xususan, davlat dasturlarini ishlab chiqishda natijaviylik, samaradorlik va monitoring tushunchalari kengroq qo'llanila boshlandi. Suv xo'jaligi sohasida raqamlashtirish, suv hisobini yuritish va suv tejash ko'rsatkichlariga e'tibor kuchaydi.

Maqsadli indikatorlarga asoslangan moliyalashtirish tizimiga o'tish aniq normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrda PQ-4555-son Qarori bilan davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini baholashning yangi tizimi joriy qilindi. Bunga asosan:

2020-yildan boshlab sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, avtomobil yo'llari va suv xo'jaligi sohalarida 2018-2019-yillardagi tadbirlarga yo'naltirilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning natijadorligini xalqaro moliya institutlari ekspertlari ishtirokida tahlil qilindi va baholandi;

ushbu baholash natijalaridan kelib chiqqan holda dastlabki pilot tarzda Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Avtomobil yo'llari qo'mitasi va Suv xo'jaligi vazirligi xarajatlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini belgilash hamda tajriba tariqasida ularni baholash tizimini joriy etish, shu asosda 2021-yil uchun byudjetlarini shakllantirildi;

2021-yildan boshlab barcha vazirlik va idoralarning byudjetlari xarajatlarning samaradorlik indikatorlarini belgilagan holda maqsadli rejalashtirish tizimiga o'tkazish va 2022-yildan byudjetni shakllantirishda tatbiq etildi.

Shunga asosan, 2020–2030 yillarga mo'ljallangan Suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida aniq maqsadlar, natijaviy ko'rsatkichlar va indikatorlar belgilandi.

**1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini amalga oshirish natijasida erishiladigan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar**

| №                                                                     | Koʻrsatkichlar nomi                                                                      | Oʻlcho<br>v birligi | 2019-<br>yilgach<br>a | Kelgusi yillarda erishiladigan<br>koʻrsatkichlar |          |          |          |
|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|-----------------------|--------------------------------------------------|----------|----------|----------|
|                                                                       |                                                                                          |                     |                       | 2020-yil                                         | 2021-yil | 2025-yil | 2030-yil |
| I. Suv resurslaridan oqilona foydalanish                              |                                                                                          |                     |                       |                                                  |          |          |          |
| 1.                                                                    | Irrigatsiya tizimi va sugʻorish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish     | koef.               | 0,63                  | 0,64                                             | 0,65     | 0,68     | 0,73     |
| 2.                                                                    | Suv taʼminoti darajasi past boʻlgan sugʻoriladigan yer maydonlarini kamaytirish          | ming ga             | 560                   | 526                                              | 492      | 356      | 190      |
|                                                                       |                                                                                          | %                   | 13                    | 12                                               | 11       | 8        | 4        |
| 3.                                                                    | Irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish va beton qoplamali kanallar ulushini oshirish | km                  | 9 675                 | 9 960                                            | 10 529   | 11 425   | 13 175   |
|                                                                       |                                                                                          | %                   | 34                    | 35                                               | 36       | 40       | 46       |
| 4.                                                                    | Suv xoʻjaligi vazirligi tizimidagi:                                                      |                     |                       |                                                  |          |          |          |
|                                                                       | nasos stansiyalari agregatlarini energiya tejamkor nasos agregatlariga almashtirish      | dona                | 732                   | 895                                              | 1 058    | 1 658    | 2 482    |
|                                                                       |                                                                                          | %                   | 13,8                  | 16,9                                             | 20       | 32,3     | 46,9     |
|                                                                       | nasos stansiyalarining eskirgan elektr dvigatellarini yangisiga almashtirish             | dona                | 1 627                 | 1 841                                            | 2 060    | 2 906    | 3 727    |
|                                                                       |                                                                                          | %                   | 30,7                  | 34,8                                             | 38,9     | 56       | 70,5     |
|                                                                       | nasos stansiyalarining elektr energiyasi isteʼmolini kamaytirib borish                   | mlrd kVt.s          | 8,0                   | 7,6                                              | 7,3      | 7,0      | 6,0      |
| II. Suvni tejaydigan texnologiyalarni qoʻllash koʻlamini kengaytirish |                                                                                          |                     |                       |                                                  |          |          |          |
| 5.                                                                    | Suv tejovchi sugʻorish texnologiyalarini joriy etishni kengaytirish, shu jumladan:       | ming ga             | 175                   | 250                                              | 532      | 1 000    | 2 000    |
|                                                                       |                                                                                          | %                   | 4                     | 5,8                                              | 12,3     | 23       | 47       |

| №                                                                                                      | Ko'rsatkichlar nomi                                                                                                                                                  | O'lcho<br>v birligi | 2019-<br>yilgach<br>a | Kelgusi yillarda erishiladigan<br>ko'rsatkichlar |          |          |          |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|-----------------------|--------------------------------------------------|----------|----------|----------|
|                                                                                                        |                                                                                                                                                                      |                     |                       | 2020-yil                                         | 2021-yil | 2025-yil | 2030-yil |
|                                                                                                        | tomchilatib sug'orish<br>texnologiyalari joriy<br>etilgan maydonlarni<br>kengaytirish                                                                                | ming<br>ga          | 77,4                  | 125                                              | 175      | 300      | 600      |
| <b>III. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash</b>                                   |                                                                                                                                                                      |                     |                       |                                                  |          |          |          |
| 6.                                                                                                     | Sug'oriladigan yer<br>maydonlarida sho'rlangan<br>yer maydonlarini<br>kamaytirish, shu<br>jumladan:                                                                  | ming<br>ga          | 1 948                 | 1 926                                            | 1 906    | 1 852    | 1 722    |
|                                                                                                        |                                                                                                                                                                      | %                   | 45,7                  | 45                                               | 44,6     | 43       | 40       |
|                                                                                                        | kuchli va o'rta<br>sho'rlangan<br>sug'oriladigan yer<br>maydonlarini kamaytirish                                                                                     | ming<br>ga          | 607                   | 581                                              | 559      | 516      | 430      |
|                                                                                                        |                                                                                                                                                                      | %                   | 14                    | 13,5                                             | 13       | 12       | 10       |
| 7.                                                                                                     | Yer osti suv sathi<br>muammoli holatda (0 — 2<br>m) bo'lgan yer<br>maydonlarini kamaytirish                                                                          | ming<br>ga          | 1 051,1               | 988,1                                            | 945,2    | 859,2    | 773,4    |
|                                                                                                        |                                                                                                                                                                      | %                   | 24                    | 23                                               | 22       | 20       | 18       |
| 8.                                                                                                     | Qishloq xo'jaligida<br>foydalanishdan chiqib<br>ketgan sug'oriladigan yer<br>maydonlarini qayta<br>foydalanishga kiritish                                            | ming<br>ga          | 48                    | 58,2                                             | 41,5     | 150,8    | -        |
| <b>IV. Suv xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta'minlash</b>            |                                                                                                                                                                      |                     |                       |                                                  |          |          |          |
| 9.                                                                                                     | Suv omborlarida va<br>boshqa yirik inshootlarda<br>nazorat-o'lchash<br>uskunalar hamda xabar<br>berish tizimlarini<br>modernizatsiya qilish, tiklash<br>va yangilash | dona                | -                     | -                                                | 5        | 20       | 55       |
| <b>V. Suv xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish</b> |                                                                                                                                                                      |                     |                       |                                                  |          |          |          |
| 10.                                                                                                    | Daryo va soylarda:                                                                                                                                                   |                     |                       |                                                  |          |          |          |
|                                                                                                        | gidrologik postlarni<br>raqamli texnologiyalar<br>asosida<br>avtomatlashtirilgan<br>uskunalar bilan jihozlash                                                        | ta                  | 2                     | 3                                                | 4        | 10       | 14       |
|                                                                                                        | gidrologik postlarni qayta<br>tiklash va suvni tezkor<br>nazorat qilish                                                                                              | ta                  | -                     | -                                                | -        | 7        | 18       |

| №   | Ko'rsatkichlar nomi                                                                                                                                   | O'lcho<br>v birligi | 2019-<br>yilgach<br>a | Kelgusi yillarda erishiladigan<br>ko'rsatkichlar |          |          |          |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|-----------------------|--------------------------------------------------|----------|----------|----------|
|     |                                                                                                                                                       |                     |                       | 2020-yil                                         | 2021-yil | 2025-yil | 2030-yil |
| 11. | Suv xo'jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun "Smart Water" ("Aqlli suv") tizimini joriy etish | dona                | 61                    | 151                                              | 3 250    | 12 000   | 18 576   |
| 12. | Suv xo'jaligi obyektlarini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish                                                                                 | dona                | -                     | 10                                               | 20       | 50       | 100      |
| 13. | Meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o'tkazish                                                                      | dona                | 66                    | 2 000                                            | 4 022    | 6 985    | 27 270   |
|     |                                                                                                                                                       | %                   | 0,25                  | 7,3                                              | 30       | 50       | 100      |
| 14. | Nasos stansiyalarida elektr energiyasi iste'moli va suv miqdorini "onlayn" rejimda monitoring qilish tizimini joriy etish                             | dona                | -                     | 100                                              | 327      | 1 700    | 1 821    |
|     |                                                                                                                                                       | %                   | -                     | 4,6                                              | 15       | 93       | 100      |

Bu davrda davlat byudjeti mablag'larini rejalashtirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorlikni oshirish, suv tejash darajasi, suv yo'qotishlarini qisqartirish, suv hisobining raqamlashtirilishi, meliorativ holatni yaxshilash kabi indikatorlar bosqichma-bosqich inobatga olinmoqda. Mazkur yondashuv suv xo'jaligi sohasida moliyalashtirishni strategik maqsadlar bilan bog'lash imkonini berdi.

So'nggi bosqichda suv xo'jaligi sohasida maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish mexanizmlari amaliyotga faol joriy etilmoqda. Davlat byudjeti mablag'larining bir qismi aniq natijalarga erishish sharti bilan ajratilmoqda, indikatorlar monitoringi kuchaytirilmoqda hamda raqamli platformalar orqali hisobdorlik ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, mavjud tizimni takomillashtirish, indikatorlar sifatini oshirish, ularni hududiy va tarmoq xususiyatlariga moslashtirish hamda moliyalashtirish va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni yanada mustahkamlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida suv xo'jaligi sohasini boshqarish bo'yicha qator qabul qilingan uzoq va o'rta muddatli strategik hujjatlarda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, suvga bo'lgan talabning yil sayin oshib borishini inobatga olgan holda respublikada suv xo'jaligi ob'yektlarini raqamli texnologiyalar

asosida avtomatlashtirish, elektr energiyasi va suv resurslarini tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, suv xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini, davlat-xususiy sheriklik va autsorsing joriy qilish, suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish hamda suv xo'jaligi sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish kabi qator vazifalar belgilangan.

Shundan kelib chiqib, 2020-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi hujjatlarga muvofiq davlat byudjeti mablag'lari suv xo'jaligi sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar doirasida belgilab olingan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda maqsadli indikatorlarni shakllantirish orqali erishish uchun yo'naltirish amaliyoti mutazam yo'lga qo'yildi.

Ushbu yondashuv suv xo'jaligi tizimida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayonlarini natijaga yo'naltirish va suv resurslarini oqilona boshqarishga xizmat qilmoqda.

Ushbu mexanizm asosida Davlat byudjeti mablag'lari suv yo'qotishlarini qisqartirish, irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, suv va elektr energiya resurslari va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ushbu mazkur jarayonlarni raqamlashtirish bilan bog'liq aniq ko'rsatkichlarga yo'naltirildi. Natijada, irrigatsiya tizimlarida suv yo'qotishlari kamayishi, suvdan foydalanish me'yorlarining optimallashtirilishi va sug'oriladigan yerlarning suv bilan ta'minlanish barqarorligi oshishi kuzatildi. Jumaladan:

- irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarini, xususan, kanallarni betonlash orqali inshootlarda suv filtratsiyasini yo'qotish evaziga foydali ish ko'effitsiyentini 0,65 dan 0,73 ga oshirilmoqda;

- suv ta'minoti past bo'lgan sug'oriladigan yer maydonlarini yiliga o'rtacha 30 ming gektarga kamaytirilmoqda;

- nasos stansiyalarida yiliga o'rtacha 63-65 dona nasos agregatlarini hamda yiliga o'rtacha 100-120 dona elektr dvigatellerini zamonaviy energiya tejamkor uskunalarga almashtirish hisobiga yiliga o'rtacha 300-400 ming kVt.s elektr energiyasi iqtisod qilinishiga erishilmoqda;

- suv resurslari harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradigan "Aqlli suv" suv o'lchagichlar har yili 1500-2000 nuqtada o'rnatilishi evaziga suv resurslari taqsimoti hamda boshqaruvda qarorlarining tezkorligi va ishonchliligini oshirmoqda;

- suv tejovchi sug'orish texnologiyalari yiliga o'rtacha 200-500 gektargacha maydonda joriy etish orqali ushbu maydonlardagi har bir gektar yerni sug'orishda 20-40 foiz suv iqtisod qilinishiga erishilmoqda.

Eng asosiysi maqsadli indikatorlar asosida moliyalashtirish davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish shaffofligini sezilarli darajada kuchaytirdi. Har bir

byudjet dasturi bo'yicha belgilangan indikatorlar doirasida hisobot yuritilishi moliyaviy resurslarning qayerga va qanday natija bilan yo'naltirilganini aniq ko'rsatishga imkon berdi. Natijada, suv xo'jaligi sohasida moliyaviy intizom kuchayishiga, byudjet xarajatlarini baholashning sifat jihatidan yangi mexanizmlari shakllanib bormoqda.

Ta'kidlab o'tish kerak, tomchilatib sug'orish, yomg'ir latib sug'orish va lazerli tekislash texnologiyalarini qo'llash bo'yicha aniq ko'rsatkichlar belgilanishi ushbu yo'nalishda ajratilayotgan subsidiya va investitsiyalar samaradorligini oshirdi. Bu esa suv sarfini qisqartirish bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Жаҳон банки ҳисоботиға кўра “So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etishni qo'llab-quvvatlamogda: 77 470 gektar tomchilatib sug'orish texnologiyasi bilan jihozlandi, 2019 yilda 1 123 gektar yomg'ir latib sug'orish, 2 000 gektar diskret sug'orish tizimiga o'tkazilgan. 2020-yilda 133 ming gektarga yaqin maydon suv tejoychi tizimlar bilan jihozlangani ma'lum qilindi. Shundan tomchilatib sug'orish tizimlari 49,5 ming gektarni tashkil etdi.

Biroq, O'zbekistonda ushbu zamonaviy sug'orish texnologiyalarining umumiy ulushi past bo'lib, 2020-yilda jami sug'oriladigan yerlarning 7 foizidan kamrog'ini tashkil etdi. Buning sabablarini quyidagilar bilan bog'lash mumkin: 1) hajmiy o'lchovning yo'qligi, (2) fermerlar tomonidan suvdan foydalanganlik uchun tuman darajasidagi BISga to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar yo'q, va (3) imtiyozlarning katta qismi davlatga tegishli, texnologiyani joriy etish xarajatlari esa xususiy hisoblanadi. Hukumatning maqsadi 2030-yilgacha 2 million gektardan ortiq maydonda suvni tejash texnologiyalarini joriy etishdir” [12].

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi tufayli davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirish tizimida iqlim o'zgarishiga moslashish indikatorlarini ham ishlab chiqish va shu asosda moliyalashtirish taqozo qilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozim, davlat byudjeti mablag'lari suv tanqisligi xavfini kamaytirishga, suv omborlari va irrigatsiya tizimlarining moslashuvchanligini oshirishga qaratish muhim sanaladi. Bu holat suv resurslarini boshqarishda uzoq muddatli strategik yondashuvning shakllanishiga xizmat qiladi.

Suv xo'jaligi tizimida institutsional islohotlar jarayonida amaliyotga zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi munosabati bilan sohadagi faoliyat yuritayotgan mutaxassis va muhandislarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari hamda salohiyati oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada uzoq va o'rta muddatli davrda erishish belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash bilan birgalikda, monitoring va baholash tizimlari takomillashtirilmoqda hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligi oshdi.

### **Xulosa**

Umuman olganda, 2020 yildan keyin suv xo‘jaligi sohasida maqsadli indikatorlarga asoslangan moliyalashtirishning joriy etilishi byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, suv resurslarini oqilona boshqarish va sohaga zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini tatbiq etishda muhim natijalarga erishilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud natijalarni mustahkamlash va indikatorlar tizimini yanada takomillashtirish suv xo‘jaligi sohasining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish lozim suv xo‘jaligida tadbirlarni maqsadli indikatorlarni joriy etish orqali davlat byudjetidan moliyalashtirishda ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Bu borada so‘nggi yillarda suv xo‘jaligida erishilayotgan natijalar misol bo‘ladi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishda muhim omillardan biri aynan belgilangan yuqori ko‘rsatkichlarga erishishda maqsadli indikatorlar orqali moliyalashtirish, hisobdorlik va uning natijasini aniq baholash katta vazifani bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, Suv xo‘jaligini davlat byudjetidan moliyalashtirishda sohadagi muhim vazifalar, global iqlim o‘zgarishiga moslashish hamda yashil iqtisodiyotga o‘tish kabi dolzarb masalalardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich doimiy maqsadli indikatorlarni shakllantirish orqali rejalashtirish, hisobini yuritish va baholash juda muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda, Davlat byudjetidan moliyalashtirishda aniq maqsadlarga erishishda kelgusida quyidagilar taklif qilinadi:

1. Suv tanqisligi ko‘p kuzatiladigan hududlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini suv tejovchi texnologiyalari orqali sug‘orish uchun kichik hajmdagi suv yig‘ish hovuzlarini qurish va ko‘paytirish;
2. Suv xo‘jaligi ob‘yektlarining foydali koeffitsientini oshirish maqsadida “bir kanal – bir tizim” tamoyilida kanallarda betonlashtirish va rekonstruksiya tadbirlarini so‘nggi yillarda boshlangan kanallardan suv oladigan tarmoqlarda davom ettirish;
3. Suv xo‘jaligi inshootlari xususan, kanallarda zamonaviy xorijiy tajribalar asosida suvni o‘lchaydigan avtomatik kompleks tizimlarni joriy qilish orqali onlayn monitoringini yo‘lga qo‘yish muhimdir.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Abdullayev I., Karimov A. “Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari”. – Toshkent: Fan, 2019
2. Tursunov B.O., “Davlat moliyasini natijaga yo‘naltirilgan boshqarish”. – Toshkent, 2020

3. Ismoilov S., Qodirov D. “Suv xo‘jaligi sohasida davlat xarajatlari samaradorligini baholash” // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2021
4. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi. “Sohani rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobotlar”. – Toshkent, 2020-2024.
5. Mamatqulov X. “Irrigatsiya va melioratsiya iqtisodiyoti”. – Toshkent, 2018
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PQ-6024-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasi (2020 - 2030 yillar)” to‘g‘risida.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5005-son Qarori “2021 – 2023-yillarda suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sohasini rivojlantirish strategiyasi” to‘g‘risida.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-fevraldagi PF-5330-son Farmoni “Suv xo‘jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida.
9. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. – Toshkent
10. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.
11. World Bank. Performance-Based Budgeting in the Water Sector. – Washington DC, 2019.
12. World Bank. Uzbekistan Public Expenditure Review. – Washington DC, 2022.